
Sharqshunoslik instituti olimlaridan yangi ijod namunasi!

O'zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti olimlari t.f.d. Ablat Xo'jayev va t.f.n., dotsent Sherali Qo'ldoshevlar muallifligida Markaziy Osiyoning yaqin tarixida o'ziga xos nom qoldirgan shaxsiyatlardan biri Muhammad Yoqubbek hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan "Muhammad Yoqubbek" nomli ilmiy-ommabop kitobi nashr etildi.



Kitobda Toshkent viloyatining Pskent tumanidan bo‘lgan bu ajdodimizning Qo‘qon xonligidagi faoliyati, jasorati va hozirgi Xitoy hududida asos solgan Yettishahar davlati (1865-1878), uning sirli o‘limi hamda hozirgi avlodlari haqida ko‘plab qiziqarli ma’lumotlar berilgan.